O‘zbekiston aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining IX-Qurultoyi: mamlakat aviatsiyasi hayotida yangi bosqich

2025 16 Avgust

15-avgust kuni O‘zbekiston aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining IX Qurultoyi bo‘lib o‘tdi – bu soha uchun muhim voqea bo‘lib, professional hamjamiyatni umumiy qadriyatlar va maqsadlar atrofida birlashtirdi.

Unda “Uzbekistan Airways” AJ, “Uzbekistan Airports” AJ, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi, “O‘zaeronavigatsiya” DUK, Fuqaro aviatsiyasi agentligi, “Vatanparvar” Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi va mamlakatning 11 ta aeroporti kasaba uyushmalari tashkilotlari delegatlari, shuningdek, aviakorxonalar rahbarlari, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, sohada xizmat ko‘rsatgan faxriylar ishtirok etdi.

IX Qurultoyda muloqot va hamkorlikka konstruktiv tus berildi.

Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv raisi Shuxrat Xudaykulov, “Uzbekistan Airports” AJ Boshqaruv raisi o‘rinbosari Bohodir Mirusmanov va O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi o‘rinbosari Baxtiyor Mahmadaliyev nutqlarida inson qadr-qimmati va mehnat qadri e’tibor markazida ekanligini ta’kidladilar. Bugungi kunda tashkilotlarda kasaba uyushmalari institutlari izchil mustahkamlanib, xodimlarning xavfsiz, munosib va rag‘batlantiruvchi ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Qurultoyda O‘zbekiston aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining 2020-yil avgustdan 2025-yil avgustgacha bo‘lgan davrdagi hisoboti tinglandi va istiqboldagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Delegatlar tomonidan kasaba uyushmalari faoliyatini yanada mazmunli va natijador qilish maqsadida “2026-2030-yillarga mo‘ljallangan harakatlar dasturi” tasdiqlandi.

Aviatsiya sanoati kasaba uyushmalari harakatining yangi rahbariyati saylanishi asosiy natija bo‘ldi. Yashirin ovoz berish natijalariga ko‘ra, “Uzbekistan Airways” AJ kasaba uyushmasini boshqargan Mullabekov Alisher Nurmaxmatovich O‘zbekiston aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi etib saylandi. Uning saylanishi professional obro‘si va aviatsiya xodimlariga xizmat qilish tamoyillariga sodiqligining e’tirofidir.

“Avvalo, menga bildirgan ishonchingiz uchun chin dildan minnatdorchilik bildiraman. Bu ishonch men uchun katta sharaf va ayni paytda ulkan mas’uliyatdir. Aviatsiya – bu nafaqat havo kemalari, balki o‘z ishini sevadigan minglab odamlarning mehnati, fidoyiligi va sadoqatiga asoslangan tizimdir. Kasaba uyushmamiz ishchilar manfaatini himoya qilishi, ularning mehnatini qadrlashi, ularga munosib sharoit yaratib berishi kerak. Aviatsiya sohasida ishlayotgan har bir insonning ovozi eshitilishi va inobatga olinishiga harakat qilaman. Yana bir bor rahmat sizga. Ishonchingizni oqlash uchun bor kuchimni ishga solaman”, – dedi Alisher Mullabekov.

Qurultoyda bir qator tashkiliy masalalar bo‘yicha ham qarorlar qabul qilindi: Respublika kengashi raisi o‘rinbosari, a’zolari va Ijroiya qo‘mitasi saylovi bo‘lib o‘tdi. Dastur yakunida o‘zbek uchuvchisi Abdusamat Taymetov haqidagi film namoyish etilib, mahalliy aviatsiyaning vorisiyligi va an’analari haqida eslatib o‘tildi.

IX Qurultoy yakunlari – bu odamlarga g‘amxo‘rlik qilish va sohani rivojlantirishda kasaba uyushmalarining rolini kuchaytirish yo‘lining tasdig‘idir. Uzbekistan Airways uchun bu mamlakat aviatsiya hamjamiyatining barcha ishtirokchilari bilan yaqin hamkorlikda osmonda va yerda barqaror, xavfsiz va insonga yo‘naltirilgan madaniyatni shakllantirish yo‘lidagi yana bir qadamdir.

UZBEKISTAN
AIRWAYS
O'zbekiston
aviatsiya xodimlari
kasaba uyushmasi